STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гафорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	



INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI



Boboqulov Akmal Muborakbekovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Moliya-Iqtisod bo'lim boshlig'i

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: akmalboboqulov76@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishning amaliy jihatlari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar hamda investitsion jarayonlarda innovatsion yondashuvlarning o'rnini tahlil qilingan. Tadqiqotda kraudfunding, lizing, faktoring, ventchur kapital va boshqa muqobil moliyalashtirish mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi tahlil etilib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada iqtisodiy o'sish jarayonlarida muqobil moliyalashtirish manbalarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya faoliyati, muqobil moliyalashtirish, kraudfunding, ventchur kapital, lizing, faktoring, davlat-xususiy sheriklik, investitsion loyiha, moliyaviy resurslar.

Abstract. This article analyzes the practical aspects of alternative financing of investment activities, factors ensuring their effectiveness, and the role of innovative approaches in investment processes. The study highlights the specific features of crowdfunding, leasing, factoring, venture capital and other alternative financing mechanisms and the possibilities of their application in the national economy. It also analyzes the effectiveness of cooperation between the state and the private sector in supporting investment projects in the economy of Uzbekistan, and develops proposals on existing problems and ways to overcome them. The article substantiates the importance of alternative financing sources in economic growth processes.

Key words: investment activity, alternative financing, crowdfunding, venture capital, leasing, factoring, public-private partnership, investment project, financial resources.

Аннотация. В статье анализируются практические аспекты альтернативного финансирования инвестиционной деятельности, факторы, обеспечивающие их эффективность, а также роль инновационных подходов в инвестиционных процессах. В исследовании раскрываются особенности краудфандинга, лизинга, факторинга, венчурного капитала и других альтернативных механизмов финансирования, а также возможности их применения в условиях национальной экономики. Проведен анализ эффективности государственно-частного партнерства в поддержке инвестиционных проектов в экономике Узбекистана, выработаны предложения по устранению существующих проблем и путям их преодоления. В статье обосновано значение альтернативных источников финансирования в процессах экономического роста.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, альтернативное финансирование, краудфандинг, венчурный капитал, лизинг, факторинг, государственно-частное партнерство, инвестиционный проект, финансовые ресурсы.



KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlarida investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy bank kreditlari va davlat mablag'lari bilan cheklanib qolmasdan, muqobil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish investitsion muhitni yaxshilashga hamda tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususan muqobil moliyalashtirish tizimini shakllantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Prezident farmonlari hamda Hukumat qarorlarida xorijiy sarmoyalarni jalb etish, innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik tizimini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Muqobil moliyalashtirishning kraudfunding, venchur kapital, lizing, faktoring kabi shakllari iqtisodiyotning real sektorida yangi loyihalarni amalga oshirish, kichik biznes va startaplarni rivojlantirishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishning amaliy tahlilini o'rganish, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash, ularning milliy iqtisodiyotdagi rolini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishning nazariy asoslari, amaliy ko'rinishlari hamda samaradorligini oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Bu borada xalqaro va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari turli yondashuvlar asosida olib borilgan. Jumladan, J. Tobin, P. Samuelson va J. M. Keynes kabi iqtisodchilar investitsiya faoliyatining iqtisodiy o'sishdagi o'rni, kapitalning samarali taqsimlanishi hamda moliyaviy bozorlarning muvozanatini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning ilmiy ishlanmalarida investitsion jarayonlarda davlat siyosatining barqarorligi, moliyaviy vositalar diversifikatsiyasi va xususiy sektor ishtirokining kuchaytirilishi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

So'nggi yillarda muqobil moliyalashtirish mexanizmlari, xususan kraudfunding, venchur kapital, faktoring, lizing va mikromoliyalashtirish kabi vositalarning iqtisodiy tizimdagi o'rni keng o'rganilmoqda. T. Belleflamme, A. Schwenbacher va E. Mollick tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kraudfunding platformalari orqali investitsiya jalb etishning afzalliklari, xatar omillari hamda ularning kichik biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar — Shernayev A. A., Xo'jayev Sh., Mamatqulov A., Rasulov B., Tojiboyev M. va Saidov U. kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida milliy iqtisodiyotda investitsion muhitni yaxshilash, muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganishgan. Jumladan, Shernayev A. A. o'z tadqiqotlarida O'zbekiston sanoatida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish tajribasini tahlil qilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5635-sonli qarori (2023-yil 10-avgust), "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (2019-yil 25-dekabr) hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hujjatlarida investitsiya siyosatini takomillashtirish, xususan muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Tahlillardan ko'rinadiki, muqobil moliyalashtirish tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, yangi investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu yo'nalishda nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy tahlillarni ham chuqurlashtirish zarur bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, empirik kuzatuv hamda statistik tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish jarayonlarini amaliy jihatdan o'rganish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash va samaradorligini baholashdan iborat.



Ishning nazariy bazasi sifatida iqtisodiyot nazariyasi, moliya va investitsiya boshqaruvi sohalarida faoliyat yuritgan mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil metodi investitsiya faoliyatining turli moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda, qiyosiy tahlil esa O'zbekiston tajribasini xorijiy mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirishda qo'llanilgan. Statistik tahlil yordamida investitsiyalar hajmi, ularning manbalari hamda o'sish sur'atlari bo'yicha raqamli ma'lumotlar tahlil qilingan. Empirik kuzatuv va ekspert baholash usullari orqali amaliy jarayonlar o'rganilib, natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqotning ma'lumot bazasini O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, shuningdek xalqaro moliyaviy institutlarning ochiq manbalari tashkil etgan. Olingan ma'lumotlar asosida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, amaliy imkoniyatlari hamda rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyotining muammolarini aniqlash va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini hamda mamlakatning global raqobatbardoshligini ta'minlash — milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining zamonaviy holatini tahlil qilishni taqozo etadi. Shu bois tadqiqotning mazkur bobida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullarining hozirgi amaliyotiga e'tibor qaratiladi. Ishning ushbu qismida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish amaliyoti va uning tahlilini amalga oshirish;
- investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishda islom moliya instrumentlaridan foydalanish holatini o'rganish;
- investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini bajarish.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri — investitsiya faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion faolligini oshirish hamda real sektorni modernizatsiya qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy mablag'larni jalb etish investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanib borar ekan, investitsion muhit jozibadorligini oshirish imkoniyatlari ham takomillashmoqda. Mahalliy va xorijiy investorlarga zamonaviy moliyalashtirishning ilg'or usullarini tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda muqobil manbalarni jalb qilish har qanday kompaniyani rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Zarur mablag'larni jalb etish orqali kompaniyalar o'z ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish imkoniga ega bo'ladi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan hamda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu maqsadda O'zbekiston xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoitlar yaratish maqsadida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarga investitsiyalarni yanada faol jalb etish maqsadlariga yo'naltirilgan bo'lib, bugungi kunda hududlar investitsion jozibadorligini oshirish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilgan. Natijada, har bir hududda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda sezilarli yuksalish va samaralarga erishilmoqda.

Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining yildan-yilga sezilarli ravishda ortib borishi muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishi orqali o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi hamda investitsiyalar miqdori barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Jumladan, 2019–2023-yillar oralig'ida investitsiyalar hajmi mutlaq o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Mazkur davrda YAIM hajmi 2,3 martaga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar esa 3,4 martaga ortgan (1-jadval).

1-jadval. Investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotidagi rolini belgilovchi ko'rsatkichlar dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
YAlpi ichki mahsulot, mlrd.so'mda	302536,8	406648,5	511838,1	580203,0	734632,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd.so'mda	72155,2	124231,3	189924,3	210195,4	244963,3
Qurilish ishlari, mlrd.so'mda	34698,0	51129,3	68854,4	37548,4	45802,7
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH. dollari)	26566,1	33429,9	42177,8	36256	42072
Eksport, (mln. AQSH. dollari)	12553,7	13990,7	17901,7	15102	16611
Import, (mln. AQSH. dollari)	14012,4	19439,2	24276,1	21154	25461
Saldo, (mln. AQSH. dollari)	-1458,7	-5448,5	-6374,4	-6052	-8850

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmi 2019-yilda 302,5 trillion so'mdan 2023-yilga kelib 734,6 trillion so'mgacha o'sib, iqtisodiyot qariyb 2,4 barobarga kengayganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich mamlakatda iqtisodiy faollikning ortgani va investitsion muhitning yaxshilanganidan dalolat beradi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi ham izchil o'sishni namoyon etgan. 2019-yilda 72,1 trillion so'mni tashkil etgan bu ko'rsatkich 2023-yilda 244,9 trillion so'mga yetgan. Shu davr mobaynida investitsiyalar hajmi qariyb 3,4 barobarga oshib, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoya kiritish faolligining kuchayganini tasdiqlaydi. Bunda davlat investitsiya dasturlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish va xususiy sektorning faollashuvi muhim omil sifatida xizmat qilgan.

Qurilish ishlari hajmi ham umumiy o'sish yo'nalishida bo'lsa-da, ayrim yillarda pasayish qayd etilgan. Xususan, 2021-yilda qurilish ishlari hajmi 68,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 37,5 trillion so'mga tushgan. Ushbu pasayish pandemiya oqibatlari, ayrim investitsion loyihalarning kechikishi hamda qurilish bozoridagi vaqtinchalik sustlashuv bilan izohlanadi. Biroq 2023-yilda hajm yana 45,8 trillion so'mga yetgani sohada tiklanish jarayonlarining boshlanganidan dalolat beradi.

Tashqi savdo aylanmasi ham tahlil qilingan davrda o'sish dinamikasini saqlab qolgan. 2019-yilda 26,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 42 milliard dollardan oshgan. Eksport hajmi 12,5 milliard dollardan 16,6 milliard dollargacha o'sib, import hajmi esa 14,0 milliard dollardan 25,4 milliard dollarga yetgan. Bu esa mamlakat ichki bozorida talabning ortganini, shuningdek ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo va texnologiyalar importining ko'payganini anglatadi.

Shu bilan birga, tashqi savdo saldosi salbiy ko'rinishda qolmoqda: 2019-yilda -1,45 milliard dollar bo'lgan saldo 2023-yilda -8,85 milliard dollarga yetgan. Bu holat importning eksportga nisbatan tezroq o'sayotganini bildiradi. Biroq importning katta qismi investitsiya loyihalari uchun zarur uskunalar va texnologiyalar xaridiga to'g'ri kelgani sababli, uzoq muddatli istiqbolda bu iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil natijalari 2019–2023-yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri investitsiya faoliyati bo'lganini ko'rsatadi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va YalMning barqaror o'sishi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy resurslar jalb etish siyosati va iqtisodiy islohotlarning amaliy natijalarini tasdiqlaydi. Tashqi savdo aylanmasining kengayishi hamda qurilish sohasidagi faollik iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakat hududlari va iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibiy tuzilmani aks ettiruvchi 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. 2020–2023-yillar oralig'ida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 107,3 trillion so'mdan 244,9 trillion so'mga yetgan, ya'ni 137,6 trillion so'mga yoki 228,09 foizga o'sish qayd etilgan. Ushbu natijalar mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanayotganini, davlat va xususiy sektor ishtirokining kengayganini hamda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalanayotganini ko'rsatadi.

Markazlashgan investitsiyalar tarkibida 2020-yilda 34,4 trillion so'm bo'lgan hajm 2023-yilga kelib 54,7 trillion so'mga yetib, 15,8 foiz o'sish qayd etilgan. Bu asosan davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan infratuzilma va ijtimoiy loyihalar hajmining ortgani bilan izohlanadi.

Budjet mablag'lari 2020-yildagi 4,1 trillion so'mdan 2023-yilda 18,7 trillion so'mga oshib, 4,5 baravar yoki 455 foizlik o'sishga erishgan. Bu holat davlat investitsiya siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan investitsiyalar nisbatan barqaror o'sishni saqlab qolgan bo'lib, 2020-yildagi 7,9 trillion so'mdan 2023-yilda 8,3 trillion so'mga yetgan. Bu 104 foizlik o'sishni

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, 2019–2023-yillar statistik to'plami. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi DSQ, 2024 yil. — 25-bet.



ifodalaydi. Mazkur jamg'arma asosan strategik infratuzilma, energetika va sanoat loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlab kelmoqda (2-jadval).

2-jadval. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, million AQSH dollari hisobida²

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2020 yilda 2023 yilga nisbatan o'sishi	
					(+,-)	%
Asosiy kapitalga investitsiyalar	107333,0	189924,3	210195,4	244963,3	137630,3	228,09
shu jumladan:						
Markazlashgan investitsiyalar:	34448,4	50686,8	49876,2	54675,1	20226,7	158,0
byudjet mablag'lari	4124,1	14518,0	14897,1	18765,1	14 641,0	455,0
Davlat maqsadli jamg'armalari	5468,7	x	x	x	x	x
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	271,2	x	x	x	x	x
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	x	31,3	26,1	54,2	x	x
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	x	1759,2	1234,1	1967,1	x	x
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	7894,8	6511,9	6734,1	8287,1	392,3	104,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	16689,6	27866,4	25437,1	32456,1	15766,5	194,0
Markazlashmagan investitsiyalar:	72884,6	139237,5	160319,2	190288,2	117403,6	261,0
korxona mablag'i	30062,9	39292,3	43231,0	45342,3	15279,4	150,0
aholi mablag'i	12127,8	16302,5	14567,2	18092,1	5964,3	149,0
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	14660,4	58786,7	52432,1	59875,3	45214,9	408,0
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	16033,5	24856,0	22134,0	27890,0	11856,5	173,0

Davlat kafolati ostidagi kreditlar 2020-yildagi 16,7 trillion so'mdan 2023-yilda 32,5 trillion so'mga oshib, qariyb 1,9 barobar ko'paygan. Bu xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda yirik investitsiya dasturlarining amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Markazlashmagan investitsiyalar esa umumiy investitsiya hajmining asosiy qismini tashkil etadi. 2020-yilda ularning hajmi 72,9 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 190,3 trillion so'mga yetgan. Bu 117,4 trillion so'mlik yoki 261 foizlik o'sishni anglatadi. Mazkur o'sish asosan xususiy sektor, korxonalar, aholi mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ta'minlangan.

Korxonalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar 2020-yildagi 30,0 trillion so'mdan 2023-yilda 45,3 trillion so'mga oshgan bo'lib, bu 150 foizlik o'sishni ko'rsatadi. Aholi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar ham 2020-yildagi 12,1 trillion so'mdan 2023-yilda 18,1 trillion so'mga yetgan, ya'ni 49 foizga o'sgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi ayniqsa sezilarli sur'atda oshgan — 2020-yildagi 14,6 trillion so'mdan 2023-yilda 59,8 trillion so'mga yetib, 408 foizga ko'paygan. Bu O'zbekistonda investorlar ishonchining oshib borayotganini, investitsion muhitning ochiqqligi hamda barqarorligini tasdiqlaydi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hajmi ham 2020-yildagi 16,0 trillion so'mdan 2023-yilda 27,9 trillion so'mga oshib, 73 foizlik o'sishni qayd etgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2023-yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ikki baravardan ortiq oshgan. Ushbu o'sishning asosiy manbalari sifatida xususiy sektor, xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostidagi moliyalashtirish mexanizmlari muhim rol o'ynagan. Mazkur jarayonlar mamlakat iqtisodiyotida modernizatsiya, raqamlashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning amaliy natijalarini yaqqol aks ettiradi.

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi va dinamikasi (2020–2023-yillar tahlili). — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi DSQ, 2024 yil. — 27–29-betlar.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil oshib bormoqda. Bu jarayon mamlakatda investitsion muhitning yaxshilanayotganini, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalar ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Markazlashmagan investitsiyalarning, xususan korxonalar, aholi hamda xorijiy investorlar ishtirokining ortib borishi mamlakatda bozor mexanizmlarining chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalar hajmining keskin ko'payishi esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy nufuzini mustahkamlab, investorlar ishonchining ortayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tijorat banklari kreditlari ham iqtisodiyotning muhim moliyaviy manbalaridan biriga aylanib bormoqda.

Biroq investitsiya siyosatini yanada samarali qilish uchun ayrim yo'nalishlarda takomillashtirish zarur. Avvalo, investitsiyalarni hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash, iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan viloyatlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish lozim. Shuningdek, investitsiya loyihalarining natijadorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahalliy xomashyo bazasiga asoslangan yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, soliqqa oid imtiyozlar tizimini soddalashtirish va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish zarur. Shu bilan birga, investitsion loyihalarning monitoring tizimini kuchaytirish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda natijalarga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Umuman olganda, asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining oshishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ham investitsiya siyosatini davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida amalga oshirish, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va xorijiy kapitalni iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga jalb etish mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. — *Toshkent*, 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. — *Investitsiya dasturlari tahlili bo'yicha hisobot*, 2024 yil. — 35–48-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, 2019–2023-yillar statistik to'plami*. — Toshkent: DSQ, 2024-yil. — 25–27-betlar.
4. Shernaev A. A. *Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish tamoyillari asosida rivojlantirish yo'nalishlari*. — "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №3, 2023-yil. — 40–46-betlar.
5. Abduqodirov A. A., Raxmonov Sh. R. *Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2021 yil. — 212-bet.
6. Karimov A. M. *Investitsiyalar iqtisodiy o'sish omili sifatida*. — Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2020-yil. — 158–172-betlar.
7. World Bank Group. *Uzbekistan: Country Economic Memorandum 2024*. — Washington D.C.: The World Bank, 2024. — p. 44–52.
8. Asian Development Bank. *Uzbekistan: Strengthening Public–Private Partnership Framework for Sustainable Development*. — Manila, 2023. — p. 33–40.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrda "Investitsiya dasturlarini amalga oshirishni monitoring qilish tartibi to'g'risida"gi 716-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Moliyaviy barqarorlik sharhi*. — Toshkent, 2023-yil 4-chorak. — 11–15-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
